



“VOKAL SAN’ATIDA XOR”

Abdug’aniyeva Farangizbonu

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti
Farg‘ona mintaqaviy filiali “Musiqali teatr aktyorligi”
3-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7227270>

Abstract

Maqolada Xor san’ati haqida juda ham qiziqarli kerakli va foydalima’lumot va takliflar kwetirilgan

Key words: Xor, davra, yunon, spektakl, antic teatr

Teatrga tashrif buyurgan har bir inson ya’ni tomoshabin teatrdan bir bo’lib va har doim birgalikda harakat qiladigan, bir butun jamoaning ijod mahsulini tomosha qiladi va o’zi uchun ma’naviy ozuqa oladi. Spektakl jarayonida tomoshabin ko’rmaydigan ammo ana o’sha jamoaning bir qismi bo’lib xizmat qiluvchi insonlar ham bo’ladi ular; Rejissor, sahna bezkchisi, grimyor, dekoratorlar, libos dizayneri va shu kabi ko’plab teatrning fidoiy insonlari bo’ldi va albatda tomoshabin e’tiborining diqqat markazida bo’ladigan insonlar jamoasi ya’ni jamoa ichidagi jamoa ham bo’ladi. –bu qanday qilib? Deyishingiz mumkin. Bunday deyishimning sababi haqiqatdan ham bunday jamoa ichidagi jamoa bor! Bu jamoaning nomi Xor deyiladi.

Xor (yunoncha: choros — davra o’yin qo’shig’i) — 1) antik davr teatr tomoshalarining jamoaviy ishtirokchisi; birgalikda kuylab, raqsga tushib dramatik holatlarga, qahramonlar harakatiga izoh beradigan aktyorlar guruhi; 2) xonandalar jamoasi. Tarkibiga ko’ra, bir turdagi (erkaklar xori, ayollar xori, bolalar xori) va aralash, shuningdek, ijrochilar soniga qarab kamer (12— 20 kishidan iborat), kichik va katta [100—120 gacha; qo’shma Xorlarda 500— 1000 va undan ortiq

ishtirokchi qatnashishi mumkin] Xorlarga bo’linadi. Yevropada professional unison Xorlar xristian cherkovlarda 4-asrdan ma’lum (kliros). 10—13-asrlarda Xor jamoasining ovoz (partiya)larga bo’linishi boshlandi. Gomofoniya uslubi va mumtoz garmoniyanutt rivoji davri (17-asr)dan aralash Xor jamoasi 4 ta (soprano, alt, tenor, bas) partiyaga ajratildi. Xor ijrochiligi musiqa cholg’ulari jo’rligida va jo’rsiz (a kapella) bo’ladi. O‘zbekistonda ko’p ovozli Xor ijrochiligi 19-asr oxiridan rivojlana boshladi (V. Sakovich, N. Mironov. S. Kuzmenko va boshqa



rahbarligidagi jamoalar). Professional Xorlar 20-asr o'rtalarida tashkil topgan: O'zbek radiosi Xori (1947, V. Verov), Navoiy teatri Xori (1948), O'zbek filarmoniyasining Davlat akademik kapellasi (1952, S. Valenkov va A. Sultonov). Aynan shu davrdan boshlab Xor ijrochiligi maxsus musiqa ta'limi tizimiga kiritildi, professional jamoalar qatorida o'quv, havaskor, bolalar Xorlari keng rivoj topdi. Hozirda O'zbekistonda bir necha professional Xor jamoalari faoliyat ko'rsatmoqda. O'zbekiston davlat akademik kapellasi (1978—2001-yillarda badiiy rahbari va

bosh dirijyori — A. Hamidov, 2002-yildan D. Jdanov). Repertuaridan chet el kompozitorlari (Kerubini, Motsart, Verdi, Fore, Gendel, Taneyev, Chesnokov, Raxmaninov va boshqalar)ning mumtoz asarlari, shuningdek, qayta ishlangan o'zbek xalk, qo'shiqlari, O'zbekiston kompozitorlari asarlari o'rin olgan. O'zteleradiokompaniyasi qoshidagi Respublikada xizmat ko'rsatgan xor jamoasi (tashkilotchisi — B. Umidjonov, 1960 y 16 dekabr; 2003-yildan badiiy rahbari — D. Malikova, dirijyori — B. Lutfullayev, J. Shukurov, C. Radjabova, I. Matyakubov. 2013y dan badiiy rahbar va dirijyor — Sh. Boboxonova Xozirda O'zb. R Madaniyat va sport ishlari boshqarmasi, Badiiy jamoalar birlashmasi qoshidagi Respublikada xizmat ko'rsatgan Xor jamoasi). Ijro uslubida Yevropa xor an'analari bilan milliy xonandalik uslublari uyg'unlashgan. Repertuaridan M. Burhonov, B. Umidjonov, S. Boboyev, Ik. Akbarov, M. Nasimov va boshqa qayta ishlagan xalq qo'shiqlari, M. Bafoyev, F. Alimov, B. Lutfullayev, D. Omonullayeva, N. G'iyosov va boshqa o'zbek kompozitorlarining poema, kantata, oratoriyalari asosiy Urin tutadi. Xususiy tashkil etilgan "Ipak yo'li" kamer xori (2001-2006, D. Jdanov) faoliyat yuritgan. Repertuaridan jahon xalqlari qo'shiqlari, chet el mumtoz asarlari urin olgan.

So'zimning avvalida aytganim Jamoa ichidagi jamoa! hozzir kunga kelib, opera va balet teatrlarida faoliyat yuritadi. Hozzir kungakelib mana shundayin ajoyib jamoaning o'rni qay darajad deb o'ylaysi? Bugungi kunda Xor jamoalariga ijodiy yutuqlar erishishga juda ham maqul bo'lgan sharoitlar yaratilib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasi davlat madhiyasni ham mana shundayin beqiyos xor jamoasi tomonidan ijro etilgan. Xor jamoasining asnosida hozzirgi kunda juda ham ko'plab xor jamoalri uchraydi. Bunga oddiy misol qilsam marhum Sheramat Yormatov nomidagi "BULBULCHA" bolalar xor ansambilini aytishimiz, xor jamoasining negizi bo'lib xizmat qiluvchi 3, 4, 5 yoki 6,7 ovozlar yig'indisidan iborat jamoat "ZAMIN" acapella jamoasini misol qilishimiz mumkin Xor jamoasining ilk tarixiy shaxslari kimlar ekanin xorning qay yo'sinda vujudga kelganin bilmaydigan yosh insonlar ham uchrab turibdi. Nahot mana shundayin



bebeaho san'atning qanday tarixiy shaxslari mavjud, qanday rivojlangan qaysi davr riojlangan degan savollarga javob bera olmaydigan insonlar ham uchrab turadi. Bundayin xor jamoalariniyanada ko'paytrishimiz insonlar e'tiboriga yanada go'zal asarlar yordamida juda ham beqiyos san'atning keng tarqalib, yo'q bo'lasligini oldini olish choralarini ko'rishimiz aslida har birimizning buechi deb o'ylayman. Chunki O'zbeklar azaldan har qanday rivojlangan sohalarda o'zining ilg'orligi bilan dunyo hamjamiyatini lol qoldirib kelgan.

References:

1. uz.wikipedia.org
2. www.ziyo.uz

